

MUSIQA VA RAQS SAN'ATI – INSON MA'NAVIY KAMOLOTINING MUHIM OMILI

Erkinoy Saitova

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professor v.b

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20813385>

Annotatsiya: Maqolada o'zbek milliy musiqa va raqs san'atining tarixi, evolyutsiyasi, musiqa va raqsning jamiyat hayotidagi ma'naviy-tarbiyaviy o'rni haqida so'z yuritilgan. Musiqa san'atining o'ziga xosligi, raqs plastikasi, raqs harakatlarining tabiiy unsurlarga, turli mavjudotlarning harakatlariga nisbatan taqlidan yaratilishi borasida mutaxassislarining fikrlari, O'zbekistonda milliy musiqa va raqs san'atining istiqbollari haqidagi mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: milliy, musiqa, soz, kuy, ashula, maqom, raqs, san'at, plastika, tarbiya, raqqosa, usul, muqallid, marosim, o'yin, jamiyat, tarbiya.

Аннотация: В статье рассказывается об истории, эволюции узбекского национального музыкального и танцевального искусства, духовно-воспитательной роли музыки и танца в жизни общества. Изложены взгляды специалистов на самобытность музыкального искусства, пластику танца, создание танцевальных движений из подражания природным элементам, движениям различных существ, размышления о перспективах национальной музыки и танцевального искусства в Узбекистане.

Ключевые слова: Национальный, музыка, слово, мелодия, пение, статус, танец, искусство, пластика, воспитание, танцор, метод, альтернатива, ритуал, игра, общество, воспитание.

Abstract: The article tells about the history and evolution of the Uzbek national musical and dance art, the spiritual and educational role of music and dance in the life of society. The views of experts on the originality of musical art, the plasticity of dance, the creation of dance movements from imitation of natural elements, movements of various creatures, reflections on the prospects of national music and dance art in Uzbekistan are presented.

Keywords: National, music, words, melody, singing, status, dance, art, plastic, education, dancer, method, alternative, ritual, game, society, education.

O'zbek xalqining egiz san'ati sanalmish musiqa va raqs merosi juda boy va qadimiy tarixga ega. Uning ajoyib an'analari hozirgi kunda ham o'z badiiy va estetik qiymatini saqlab kelmoqda. Xalq musiqa merosidan, kuy va qo'shiqlaridan ilhom olmagan musiqa san'atining biror-bir sohasini topish qiyin. Musiqashunos, raqsshunos olimlar, tarixchi – arxeologlarning ilmiy izlanishlari va O'rta Osiyo zaminidan yetishib chiqqan qomusiy olim va mutafakkirlarning ilmiy-tadqiqotlarining dalolat berishicha qadimiy Xorazm, Baqtriya va So'g'd zaminida eramizdan bir necha asr oldin nihoyatda boy va rang-barang musiqa san'ati mavjud bo'lgan. Ayritom, Tuproq qal'a, Afrosiyob kabi ko'hna shaharlaridan topilgan tasviriy san'atga oid topilmalar musiqa hayotning turli sohalariga keng joriy qilinganligidan va har bir davrning

o'ziga xos musiqa cholg'ulari, kuy-qo'shiq, raqslari bo'lganligi, ular tarixiy rivojlanish jarayonida takomillashib borganligidan darak beradi [1-2].

O'zbek xalqining milliy iftixori bo'lgan raqs san'ati necha-necha asrlar davomida shakllandi, rivoj topdi. Lekin bu san'at turi yozma ravishda o'z aksini topmaganligi bois turli davrlarda unutilib ketar, mohir usta san'atkorlar davrida yana shakllanar edi. Ular shu ko'rinishda bizning davrimizgacha qisman yetib kelgan. O'zbek raqs daholari yaratgan g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak mumtoz raqslar xalqimizni asrlar davomida insonparvarlik, ona Vatanga muhabbat, jasorat, fidokorlik, kurashchanlik, go'zal xulq ruhida tarbiyalashga yaqindan yordam berib kelmoqda. Kelajak avlodni voyaga yetkazish, xalq orasida haqiqiy insoniylik munosabatlarini shakllantirishda o'zbek xalqining merosi bo'lgan bugungi kunda muhim estetik tarbiya vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Inson tarbiyasi estetik, ahloqiy-madaniy tarbiya sohalari bilan uzviy bog'liqdir.

Raqs – so'zsiz she'riyat, qo'shiq, xalq qalbini o'ziga singdiradigan hissiy solnomadir. U musiqa ko'magida hislar va voqealar tarixini o'ziga xos tarzda hikoya qiladi. Kishilar musiqaga hamohang ijro etilayotgan raqsni tomosha qilish asnosida hayotni anglaydi. Raqs tushayotib esa uni plastik harakatlarda ifodalaydi. Musiqa va raqsda har bir xalq o'z hayotini aks ettiradi. Shuning uchun ham ulardagi plastik obrazlar betakrordir. O'zbek raqslarining betakrorligi nafaqat obrazlarning plastik tarkibida, balki ularning ijro usullarida, musiqasi ohanglarida, liboslarning rang-barangligi va o'ziga xosligida ko'rinadi.

Ma'lumki, raqslarda tabiat obrazi yaratiladi. Ularda qo'l jilvalari, o'rmon yo'laklari, ariq jildirashi, daraxt gullari, qushlar parvozi o'z aksini topadi. Bu raqslarda namoyon bo'ladigan obrazlar ijrochilarni ham, tomoshabinlarni ham majoziy fikrlashga undaydi. Bularning bari musiqa bilan uyg'unlikda betekrorlik kasb etadi. Musiqa ohanglari ta'sirida raqqosalarning har biri ijro chog'ida o'zini butunning qismi sifatida his qilib, goh barg, goh gul, goh suv ko'rinishi namoyon etadi. Bu badiiy usulning shartlilikini, raqs tasvirlarida poetik umumlashma mavjudligini, unda hayolot, tasavvur kengligi, obrazli fikrlash borligini anglatadi. Qadimgi raqs ijodkorlari ham dunyoni obrazli tafakkur qilishgan. Bu esa o'z-o'zidan inson ma'naviy-ruhiy dunyosining boyishiga muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Eng qadimiy ibtidoiy davrdan to bugunga qadar jamiyat hayoti bilan hamoxang yashab kelayotgan musiqa va raqs san'ati tuyg'ularni kuy, qo'shiq, harakat va xolatlarda, imo-ishoralarda(mimika) shunday nafis ifodalaydiki hayratlanmay iloj yo'q. Oddiy harakatlarga musiqiy jon baxsh etish, u orqali badiiy obraz yaratish bilan chinakam raqs asari yaraladi. Musiqa va raqs, uning tasviri, kompozitsiyasi haqida o'ylab, bir jihatning ikkinchisiga o'tishi, ularning aloqasi mantig'ini tushungandek bo'ldim. Buni tushunganingdan keyin uning uyg'unligi, ohangdorligi kelib chiqadi, mutanosibligi vujudga keladi. Bu raqs san'atidagi eng muhim jihatdir. Musiqaga xos harakatlar asnosida rang-barang nafosat namoyon bo'ladi. Aks holda, u shunchaki badantarbiya, quruq harakatdan iborat bo'lib qoladi. Tussiz, rangsiz harakatlar takrorlanaveradi. Faqat musiqa hisobga olingandagina raqsda mazmun, ifodaviylik zohir bo'ladi.

Bizgacha yetib kelgan raqslarning tur va janrlari rang-barangligi hayratga solarli darajada. Shu kunlardagi raqs san'atimizda bir qancha qatlam aniq ko'rinib turadi: kelib chiqishiga ko'ra ajdodlarimizning ibtidoiy tasavvurlariga aloqador muqallidlar va marosim o'yinlari; bir zamonlar zardushtiylikning ramziy obrazlari va muqaddas kitobi "Avesto"

arkonlari bilan bog'liq holda maydonga kelgan raqslar, o'rta asrlarda maqom musiqasi bilan mustahkam aloqada shakllangan mumtoz raqslar; Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari hududlarida tarkib topgan Buxoro, Xorazm va Farg'ona raqs uslublari; XX asrda professional va havaskorlik ansambllari faoliyatida keng rivojlangan xalq musiqasi va sahnaviy raqslari, zamonaviy estrada, sirk, teatr musiqa va raqslari, bolalar musiqa va raqsi va hokazo.

O'zbekiston mustaqillikning ilk yillarida umumxalq Mustaqillik va Navro'z bayramlari, Buxoro, Xiva, Termiz, Shaxrisabz shaharlari hamda buyuk olimlar, allomalar, davlat arboblari yubileylari munosabati bilan o'tkazilgan bayram tomoshalarida o'ziga xos maydon raqsi vujudga keldi. Tabiiyki, raqs san'atining mana shu barcha turlari, janrlari, uslublari bir-biridan ajratilmagan, balki malakali artistlar va havaskorlar ijodida xalq va professional ansambllar faoliyatida ular bir-biri bilan bog'langan va o'zaro ta'sirlangan holda yashab keladi.

Hamon o'zbek raqs san'atida bir-biridan gavda holatlari, qo'l va oyoq harakatlari, tarkibi, kompozitsion tuzilishi, liboslari bilan farq qiluvchi Xorazm, Buxoro va Farg'ona uslublari aniq ko'zga tashlanib turadi. Shuningdek, ularning musiqasida ham o'ziga xoslik mavjud bo'lib, har bir hududning xarakter-xususiyatlari musiqiy asarlarida o'z aksini topadi. Kompozitor va bastakorlar, raqs ustalari, baletmeyster, ansambllarning rahbarlari musiqa va raqs uslublarning o'ziga xosligini, estetik xususiyatlarini sof saqlashga harakat qilib kelishadi. Xorazm va Buxoroda hozir ham qayroq bilan usul berish, qo'l va oyoqlarga qo'ng'iroqchalar bog'lab chiqish (zang), Xorazm raqqosalarining jig'ali qalpoqlari va ko'krakka taqiladigan bargaklari. Buxoro raqqosalarining ko'pincha zardo'zi keng ko'ylaklari va baland qasavali bosh kiyimlari hamon qadrlidir. Farg'ona raqsida esa doira usullari, puxta ishlangan qo'l harakatlari, jilvalari muhim o'rin egallab keladi.

Mana shunday boy tarixga, betakror ijro yo'nalishiga ega bo'lgan milliy musiqa va raqs san'atimiz xalqimizning bebaho boyligi sifatida e'tirof etiladi. U inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir etuvchi, his-tuyg'ularni tarbiyalovchi, ushbu san'at turlari bilan mashg'ul bo'lgan yosh avlod ham jismonan, ham ma'nau yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishishi bilan ahamiyatlidir.

Inson ma'naviyatining kamolotga yetishida muhim sanalgan musiqa va raqs san'atiga mustaqillik davrida, ayniqsa so'nggi uch yil ichida e'tibor kuchaydi.

Zero, bugungi kunda miliy madaniyat, urf odat va an'analar zamiridan uzoqlashish holatlari milliy qadriyatlar tizimiga jiddiy xavf solmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda globalizmning jiddiy xavfi "ommaviy madaniyat" unsurlarini toboro ko'payib borishiga sabab bo'lmoqda. Bunday vaziyatda san'at va madaniyat orqali inson qalbini poklash, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga katta ishonch va umid bor. Bu san'atlar tizimida musiqa va raqs san'ati taraqqiyotini milliy qadriyatlar zimirida shakllantirish va rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash umumdavlat vazifasi darajasida ko'tarilgan ushbu davrda yuqoridagi kabi davlat dasturlari asosida mustaqil davlatimizning ma'naviy-ma'rifiy islohatlarida san'at ahlining faol ishtiroki va yoshlarni yurtga sodiq, barkamol avlod qilib tarbiyalash muhim ahamiyati turli hil tadbirlarda qo'yilayotgan muammolar va masalalar xususida atroflicha mulohaza yuritish va chuqur mushohada chig'rig'idan o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

O'zbek musiqa va raqs san'atining tarixiy an'analarini va usullarini tiklash, avaylab-asrash hamda boyitish, millatimizning o'ziga xos sharqona fazilatlarini, boy ma'naviyatiga

monand milliy musiqa va raqslarni targ'ib etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, musiqa va raqs san'atini xalqimizning yuksak ma'naviyati va nozik didiga zid bo'lgan, yuzaki, noo'rin taqlidga asoslangan musiqiy ijro, xatti-harakat va liboslar xurujidan saqlash, maxsus ta'lim tizimini takomillashtirish, o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan va avloddan avlodga noyob meros sifatida o'tib kelayotgan betkror musiqa va jozibali raqs namunalarini to'plash, boyitish; xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongiga bu bebaho boyliklarga chuqur hurmat va havas tuyg'ularini singdirish, ularda milliy ma'naviyatimiz, qadriyatlarimizga nisbatan ehtirom hislarini yuksaltirishga qaratilgan barcha isloxotlarda biz kabi shu sohaning barcha vakillari zimmamizga yuklatilgan mas'uliyatni chuqur anglashimiz lozim.

Faoliyatimizdagi kamchiliklar, muammolarni birlashib bartaraf etish, yangidan yangi marralarga erishish, muvaffaqiyatlar qozonishda birdam bo'lishimiz zaruratdir. O'zbekiston nufuzini dunyo hamjamiyatida yanada yuksaltirish, o'z san'atimiz orqali millatimizning boy tarixiy an'ana va urf-odatlarini, betakror madaniyati va san'ati borligini doimo namoyon etishimizda yaratilayotgan imkoniyatlardan munosib foydalanishimiz kerak.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/3922354>, 2-b.
2. Avdeeva L.A. O'zbek milliy raqsi tarixidan - T.: M.Turg'unboyeva nomidagi "O'zbekraqs" milliy raqs birlashmasi, 2001.
3. Globallashuv jarayonida xoreografiya san'ati sohasida milliylikni saqlash muammolari. Respublika ilmiy -amaliy anjumani materiallari to'plami. -Toshkent: Iqtisod - moliya nashriyoti, 2012 y.
4. Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi. Qadim zamonlardan XIX asrga qadar.- Toshkent: Fan, 1975 y. 170 b.